



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*  
\_\_\_\_\_ *ning*  
*20\_\_-20\_\_-o'quv yili 10-11-sinflar*  
*iqtidorli o'quvchilar uchun adabiyot*  
*fanidan "Yosh adabiyotshunos"*

**TO'GARAK**  
**HUJJATLARI**

## To'g'arak a'zolari haqida ma'lumot

<i>№</i>	<b>Familiya ismi va sharifi</b>	<b>Tug'ilgan sanasi</b>	<b>Sinfi</b>	<b>Manzili</b> (to'liq)	<b>Ota-onasi</b> (Ismi sharifi)	<b>Telefon</b> (uy yoki mobil)	<b>Izoh</b>
<i>1.</i>							
<i>2.</i>							
<i>3.</i>							
<i>4.</i>							
<i>5.</i>							
<i>6.</i>							
<i>7.</i>							
<i>8.</i>							
<i>9.</i>							
<i>10.</i>							
<i>11.</i>							
<i>12.</i>							
<i>13.</i>							
<i>14.</i>							
<i>15.</i>							

16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

*O'tkazilgan xona* \_\_\_\_\_





**MMIBDO‘ \_\_\_\_\_**  
**20\_\_-20\_\_-o‘quv yiliga iqtidorli o‘quvchilar uchun tuzilgan**  
**“Yosh adabiyotshunos” to‘garagining**  
**ISH REJASI**

<b>№</b>	<b>Yillik ish reja mavzulari</b>	<b>Soat</b>	<b>Sana</b>	<b>Izoh</b>
1.	Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati			
2.	Alisher Navoiyning epik asarlari. Xamsa asari va unda “Saddi Iskandariy” hajman yirik asar			
3.	“Saddi Iskandariy” dostonining ma’rifiy va adabiy ahamiyati			
4.	“Saddi Iskanariy” dostonining poetik xususiyatlari			
5.	Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi haqida ma’lumot			
6.	Bobur devonlari, ulardagi adabiy janrlar			
7.	Bobur she’riyatida badiiy san’atlar			
8.	Mashrab hayoti va ijodi. Mashrab lirikasi. Mashrab she’riyatidagi tasavvufiy ohanglar			
9.	Ishqing o‘tig‘a kuygoni keldim”, “Butani xokingni-yu ruhi ravonni na qilay”, “O‘rtar” g‘azallari va “Dastingdan” musaddasi			
10.	Anbar Otin hayoti va ijodi. “Risolayi falsafayi siyohon” asari (Qarolar falsafasi)dan			
11.	“Qarolar falsafasi” ning mazmuni va mohiyati			
12.	Abdurauf Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati. “Abulfayzxon”– ilk o‘zbek realistik dramasi			
13.	“Abulfayzxon” dramasi matni ustida ishlash			
14.	Cho‘lpon hayot va ijodi.“Kecha va kunduz” romani			
15.	“Kecha va kunduz” romani matni ustida ishlash			
16.	Asardagi Mingboshi, Razzoq so‘fi, Qurvonbibi va boshqa qahramonlar talqini			
17.	Erkin Vohidov. She’rlar va “Ruhlar isyoni” dostoni			
18.	Erkin Vohidov – dostonnavis. “Ruhlar isyoni” dostonida ijodkor va millat ozodligi muammosining badiiy-falsafiy talqini			
19.	Rauf Parfining hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Shoir she’riyatining o‘ziga xos jihatlari			
20.	Shoirning “Tong otmoqda”, “Yomg‘ir yog‘ar”, “Yoz kechasi”, “Yana qaytib keldim”, “Yurak” she’rlari talqini			
21.	Mustaqillik davri adabiyoti			
22.	Mustaqillik davri she’riyatida hozirgi davr shoirlari			
23.	O‘zbek she’riyatida yangicha ifoda usullari va badiiy tadqiq yo‘llarining kashf etilishi			
24.	Mustaqillik davrida nasr			
25.	Mustaqillik davri nasrining o‘ziga xos xususiyatlari va rang-barangligi jihatlari			
26.	Mustaqillik davri nasrida inson ichki olamining yangicha estetik qamrovda yoritilishi			
27.	Mustaqillik davri dramaturgiyasi			

28.	Mustaqillik davri dramaturgiyasining o‘ziga xos jihatlari va yutuqlari			
29.	Mustaqil o‘qish.Hozirgi adabiy jarayon va kitobxon o‘rtasidagi munosabatlarning yangicha qirralari			
30.	A.P.Chexov rus adabiyotining taniqli vakili. Uning hikoyalarida inson tabiatining xilma-xil qirralarining tasvirlanishi			
31.	A.P.Chexov ning “Garov” hikoyasi va asar tahlili			
32.	Rishod Nuri Guntekin. “Choliqushi” romani			
33.	“Choliqushi” romani matni ustida islash			
34.	Feride obraziga xos bo‘lgan insoniy fazilatlar. Adibning tasvirlash mahorati			

Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

## **MAVZU: Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati**

### **MASHG‘ULOTNING MAQSADI:**

**a) ta’limiy:** o‘quvchilarga Navoiy hayoti va ijodiga oid haqida yangi bilim berish; “Saddi Iskandariy” dostoni mohiyatini tushintirish;

**b) tarbiyaviy:** o‘quvchilar nutqining chiroyli, mazmundor bo‘lishi, xushmuomala-likka o‘rgatish;

**d) rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

### **Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:**

**a) tayanch kompetensiya(lar):** TK1, TK2;

**b) fanga oid kompetensiya(lar):** FK1.

**Mashg‘ulot turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Mashg‘ulot uslubi:** an’anaviy.

**Mashg‘ulot jihozlari:** Mashg‘ulotlik, adabiyotshunoslik atamalari lug‘ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

### **MASHG‘ULOTNING BORISHI:**

**Tashkiliy qism:** O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining Mashg‘ulotga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

**Ma’naviyat daqiqasi:** O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

**O‘tilgan mavzuni takrorlash:** O‘quvchilar bilan quyidagi sinflarda olingan bilimlarni og‘zaki yoki tarqatmali materiallar asosida takrorlash – savol-javob o‘tkaziladi. Mustaqil o‘qish uchun berilgan topshiriqlar o‘quvchilardan so‘raladi.

**Yangi mavzu bayoni:** O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi.

Asl ismi Nizomiddin Mir Alisher. U Hirotda tug‘ilib, shu yerda umrining asosiy qismini o‘tkazgan. Navoiyning otasi G‘iyosiddin Bahodir temuriylar xonadoniga yaqin bo‘lgan. She’r zavqi va iste’dodi erta uyg‘ongan. Bolalikdayoq Farididdin Attorning „Mantiqut-tayr“ asarini yod olgan, Sharafiddin Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy yosh shoir iste’dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e’tirofini qozongan. Sayyid Hasan



Ardasher, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta’lim olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo‘lgan. Navoiy 1469 yilgacha temuriylar orasidagi ichki nizolar sababli Hirotdan yiroqroqda yashagan. Husayn Boyqaro Xuroson taxtiga o‘tirgach (1469), Navoiy hayoti va ijodida yangi bosqich boshlanadi, muhrdorlik (1469) mansabiga, vazirlik (1472) va Astrobod hokimligi (1487)ga tayinlanadi. 1480—1500 yillar mobaynida o‘z mablag‘lari hisobidan bir necha madrasa, 40 rabot (safardagi yo‘lovchilar to‘xtab o‘tish joyi), 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko‘prik, 20 ta hovuz qurdiradi. Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga „muqarrabi hazrati sultoniy“ („sulton hazratlarining eng yaqin kishisi“) degan unvonni beradi. Unga ko‘ra Navoiy davlatning barcha ishlariga aralasha olardi. Alisher Navoiy tarjimai holi o‘z davrida Xondamir, Vosifiy, Husayn Boyqaro, Bobur kabi tarixchi va davlat arboblarning asarlarida aks etgan. O‘zbek olimlari Ozod Sharafiddinov,



V.Mahmud, Oybek, Yahyo G‘ulomov, Izzat Sulton, A.Zohidov, V.Abdullaev, A.Qayumov, S.G‘anieva v.b. Navoiyning hayot yo‘li haqida asarlar yaratishgan. Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini 4 faslga bo‘lish mumkin: 1. Devonlari. 2. Dostonlari. 3. Forsiy tildagi she‘riy merosi. 4. Ilmiy-filologik, nasriy va tarixiy asarlari. Alisher Navoiyning o‘zbek tilida yaratgan she‘riy merosi asosan «Xazoyin ul-maoniy» devoniga jamlangan. Asar 4 qismdan iborat. Devonning birinchi qismiga «G‘aroyib us-sig‘ar» («Bolalik g‘aroyibotlari»), ikkinchi qismiga «Navodir ush-shabob» («Yigitlik nodirotlari»), uchinchi qismiga «Badoe’ ul-vasat» («O‘rta yosh badiolari») va nihoyat, to‘rtinchi qismiga «Favoyid ul-kibar» («Keksalik foydalari») degan nomlar berildi. «Xazoyin ul-maoniy» inson bolasining murakkab va yuksak tafakkuri hamda behisob his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq minglarcha she‘r va o‘nlarcha she‘r turlarini o‘z ichiga olgan majmua bo‘lib, Sharq adabiyoti tarixida noyob hodisadir. Bu xil majmua Alisher Navoiyga qadar Amir Xisrav Dehlaviy tomonidagina tuzilgan. Ushbu devonga kirgan minglarcha she‘rlarni Alisher Navoiy butun umri davomida turli sharoitlarda, har xil sabablar bilan yozgan bo‘lib, ular shoir hayoti va u yashagan davr bilan sonsiz-sanoqsiz iplar orqali bog‘langan. Alisher Navoiy «Xazoyin ul-maoniy» ga qadar «Ilk devon», «Badoe’ ul-bidoya», «Navodir un-nihoya» devonlarini tuzgan. «Xazoyin ul-maoniy» ana shu 3 devonga kirgan hamda «Navodir ul-nihoya» tuzilgandan keyin yozilgan she‘rlar asosida yuzaga kelgan.

"SADDI ISKANDARIY" ("Iskandar devori") — "Hamsa" (Navoiy)ning yakunlovchi dostoni (1485). Asar 89 bob, 7215 baytdan iborat bo‘lib, Navoiy ijodidagi hajman eng yirik epik asardir. Doston aruzning muta‘qarib bahrida turkiyda yozilgan. Hamsanavislikning buyuk namoyandalari: Nizomiy Ganjaviy, Hisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar Iskandar to‘g‘risida doston yozib, o‘z "Hamsa"lariga kiritganlar. Dastlab musulmon dunyosida Qur‘oni karimning Kahf surasida nomi zikr etilgan hukmdor Zulqarnayn (Ikki shoxli, 18sura, 83 —98oyatlar) hamda yunon sarkardasi va davlat arbobi Aleksandrii bitta shaxs deb bilishgan va u sharkda Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhur bo‘lgan. Mazkur Iskandarnomalarga Iskandar timsolidagi Aleksandr faoliyati mavzu qilib olingan. Ammo asarlarda Iskandar timsoli tarixiylikdan tobora uzoqlashib, badiiy to‘qima obrazga aylana borgan. Har bir hamsanavis Iskandar timsolida o‘z ideallarini talqin etishga harakat qilgan.

Navoiy o‘z asari avvalida, salafaridan farqli o‘laroq, tarixiylikka, ko‘proq tarix kitoblariga tayanib ish ko‘rganini yozadi. Navoiy bu o‘rinda o‘z asarida Iskandar haqidagi boblar izchilligining Qur‘ondagi Zulqarnayn haqidagi oyatlarga hamda tarixiy shaxs Aleksandr faoliyatiga muvofiq kelishini nazarda tutgan. Dostonning "S. I." deb nomlanishida ham Qur‘oni karimning Navoiy uchun birlamchi manba bo‘lganligi seziladi.

Navoiy talkinida Iskandar odil shoh, u dunyoni kufrdan, jaholatdan tozalab, butun dunyoda adolatni joriy etish, bashariy tartibqoidalarni katta olamdagi tartibqoidalarga muvofiklashtirish maqsadida xalqlar ustiga yurishlar qilgan. Bu esa sufiyona talqin bo‘lib, dostondagi muqaddima boblar, Iskandar voqealari hikoya qilingan boblar hamda unga ilova boblarda ham shoirning tasavvufiy qarashlari ustuvorligini ko‘rish mumkin. Mas, Iskandar shisha sandiq yasab, dengiz tubiga tushadi, turfa ajoyibotlarni ko‘rib, vataniga qaytadi. U vafot etar ekan, bir qo‘lini tobutdan chiqarib qo‘yishlarini so‘raydi. Asarda Navoiy insonni bu foniy dunyo hoyu havaslariga ortiqcha ruju qo‘ymaslikka chaqirib, garchi Iskandar jahonni egallagan jahongir bo‘lsada, u narigi dunyoga hech narsasiz ketayotganligiga ishora qiladi.

Doston turkiy adabiyotda ko‘plab naziralar yozilishiga turtki bo‘lgan (Abay, "Iskandar", 19-asr; Shayxzoda, Iskandar Zulqarnayn", 20-asr va boshqalar). Iskandar obrazi she'riyatda an'anaviy obrazga aylangan.

**Mustahkamlash:** Mashg‘ulotning ushbu qismida o‘quvchilar Mashg‘ulot yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

1. «Makorim ul-axloq»da tasvirlangan Alisher Navoiy shaxsiyati haqida nima deya olasiz?
2. Xondamir tasviri va sizning tasavvuringizdagi Navoiy siymosidagi o‘xshash va farqli jihatlarni gapirib bering.
3. Navoiyning bilim olishga bo‘lgan munosabati qanday tasvirlangan.
4. Marv shahrida qurilgan madrasaga nima uchun «Xusraviya» nomi berilgan? Matnga tayanib izohlang.
5. Navoiy qurdirgan binolarning tarixiy, ilmiy hamda amaliy ahamiyati haqida matnda nima deyilganini toping va ularni izohlang.
6. Asarda Navoiyning badiiy mahorati va ijodiy salohiyati haqida nimalar deyilgan? Ularni o‘qing va tushuntiring.

**O‘quvchilarni baholash:** O‘quvchilar Mashg‘ulotdagi ishtirokiga ko‘ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o‘quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Mashg‘ulotda faol ishtirok etmagan o‘quvchilar bilan ishlanadi.

**Uyga vazifa:** o‘quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o‘qib-o‘rganish, qo‘shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

Maktab MMIBDO‘ \_\_\_\_\_ Sana \_\_\_\_\_ 20\_\_yil

**MAVZU: Alisher Navoiyning epik asarlari. Xamsa asari va unda “Saddi Iskandariy” hajman yirik asar**

**MASHG‘ULOTNING MAQSADI:**

**a) ta’limiy:** “Xamsa” dostoni turk adabiyotining eng yirik asarlaridan biri ekanligini o‘quvchilarga tushintirish va doston haqida yangi bilim berish;

**b) tarbiyaviy:** o‘quvchilarda vatan ravnaqi, yurt istiqboli va taraqqiyotiga o‘zining shaxsiy hissasini qo‘shish malakasini shakllantirish.

**d) rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

**Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:**

**a) tayanch kompetensiya(lar):** TK1, TK2;

**b) fanga oid kompetensiya(lar):** FK1.

**Mashg‘ulot turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Mashg‘ulot uslubi:** an’anaviy.

**Mashg‘ulot jihozlari:** Mashg‘ulotlik, adabiyotshunoslik atamaları lug‘ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

**MASHG‘ULOTNING BORISHI:**

**Tashkiliy qism:** O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining Mashg‘ulotga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

**Ma’naviyat daqiqasi:** O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

**O‘tilgan mavzuni takrorlash:** O‘quvchilar bilan quyi sinflarda olingan bilimlarni og‘zaki yoki tarqatmali materiallar asosida takrorlash – savol-javob o‘tkaziladi. Mustaqil o‘qish uchun berilgan topshiriqlar o‘quvchilardan so‘raladi.

**Yangi mavzu bayoni:** O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi.

Xamsa — bu Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari klassik adabiyotining tarixiy, o‘ta murakkab, 5 dostonidan tashkil topadigan adabiy janridir. „Xamsa“ (arab. **خَمْسَة** ) so‘zidan olingan bo‘lib, „beshlik“ degan ma’noni anglatadi. Odatda xamsaning barcha dostonlari she’riy

masnaviy shaklda yozilgan.



Xamsa janrnida ijod etishni ulug‘ ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan. Ganjaviy o‘z xamsasini 1141-1201-yillar oralig‘ida yaratgan bo‘lib, u dastavval beshlik yozishni ko‘zda tutmagan. Nizomiy 1173-1179-yillarda Arzin hokimi Faxriddin Bahromshohga bag‘ishlab "Maxzan-ul-asror" ("Sirlar xazinasi") nomli hamdnomani bitgan. 1180-1181-yilda Iroq hukmdori To‘rg‘ul II ning iltimosiga ko‘ra "Xusrav va Shirin" dostonini yaratadi. 1188-yilda Astaxan I Nizomiyga "Layli va Majnun" ni yozishni buyuradi. 1196-yilda hukmdor Allovudin Ko‘pra Arslonning topshirig‘i bilan shoh Bahrom haqida "Haft paykar" ("Yetti go‘zal") bitildi. 1196-1201- yillarda "Iskandarnoma" yaratildi. Shunday qilib besh doston dunyo yuzinko‘radi. Ganjaviy bu dostonlarni jamlab, bitta nom bilan, ya'ni "Panj ganj" ("Besh hazina") deb nomlaydi va

xamsa janriga asos soladi. Nizomiydan yuz yildan so'ng asli shahrisabzlik turkiy urug' avlodidan bo'lgan Husrav Dehlaviy(1253-1325) o'zining "Xamsa"sini 1299-1301 yillarda yozib tugalladi. U "Matla' ul-anvor"("Nurlarning boshlanmansi"), "Shirin va Husrav" , "Layli va Majnun" , "Hasht behisht" ("Sakkiz jannat"), "Oynayi Iskandariy"("Iskandarning oynasi") dostonlarini yaratib Nizomiy ishini davom ettirdi va natijada adabiyotshunoslikda xamsachilik an'anasi paydo bo'ldi.

"Xamsa" deb atalgan dostonlar to'plami quyidagi mavzularda bo'ladi:

- 1) Birinchi doston pand-nasihat shaklidagi ahloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-falsafiy doston;
- 2) Husrav va Shirin munosabatlariga bag'ishlangan doston;
- 3) Layli va Majnunning ishqiy mojarolari aks ettirilgan, muhabbat mavzusidagi doston;
- 4) Shoh Bahrom haqidagi sevgi-sarguzasht dostoni;
- 5) Iskandar haqida qahramonlik dostoni.

Xamsachilikda ulkan yutuqqa erishgan xamsanavislar quyidagilar:

Husrav Dehlaviy(1253-1325)

Abdurahmon Jomiy (1414-1492)

Alisher Navoiy(1441-1501)[1]

Xamsa adabiyotshunoslikda, shuningdek tarixiy va tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyat kasb qiladi.

**Mustahkamlash:** Mashg'ulotning ushbu qismida o'quvchilar Mashg'ulot yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

1. Yusuf Xos Hojib asaridagi Kuntug'di bilan Oyto'ldi suhbatlari davomida qo'llangan ramzlarni eslang. Ular bilan «Saddi Iskandariy»dagi ramzlarning qanday o'xshash va farqli jihatlarini tasavvur qildingiz. Shu haqda gapirib bering.
2. Iskandar kakliklar voqeasidagi yakundan xursand bo'ladi. Buning sababini izohlay olasizmi?

**O'quvchilarni baholash:** O'quvchilar Mashg'ulotdagi ishtirokiga ko'ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o'quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Mashg'ulotda faol ishtirok etmagan o'quvchilar bilan ishlanadi.

**Uyga vazifa:** o'quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o'qib-o'rganish, qo'shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

Maktab MMIBDO' \_\_\_\_\_ Sana \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil

Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**MAVZU: “Saddi Iskandariy” dostonining ma’rifiy va adabiy ahamiyati**  
**MASHG‘ULOTNING MAQSADI:**

- a) **ta’limiy:** o‘quvchilarga Alisher Navoiy lirikasi haqida yangi bilim berish;
- b) **tarbiyaviy:** o‘quvchilarda badiiy va san’at asrlarini tushunishga o‘rgatish;
- d) **rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

**Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:**

- a) **tayanch kompetensiya(lar):** TK1, TK2;
- b) **fanga oid kompetensiya(lar):** FK1.

**Mashg‘ulot turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Mashg‘ulot uslubi:** an’anaviy.

**Mashg‘ulot jihozlari:** Mashg‘ulotlik, adabiyotshunoslik atamaları lug‘ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

**MASHG‘ULOTNING BORISHI:**

**Tashkiliy qism:** O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining Mashg‘ulotga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.


**Ma’naviyat daqiqasi:** O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

**O‘tilgan mavzuni takrorlash:** O‘quvchilar bilan quyi sinflarda olingan bilimlarni og‘zaki yoki tarqatmali materiallar asosida takrorlash – savol-javob o‘tkaziladi. Mustaqil o‘qish uchun berilgan topshiriqlar o‘quvchilardan so‘raladi.

**Yangi mavzu bayoni:** O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi.

«Saddi Iskandariy» «Xamsa» dostonlarining yakunlovchisi. hajmiga ko‘ra ham eng yirik dostonidir. U 89 bobdan iborat. Shundan 1–14-boblar kirishni, 15–87-boblar asosiy qismni, 88–89-boblar xotima qismini tashkil etadi. Asosiy qism o‘zaro yaxlitlikni tashkil etadigan 18 ta mavzuni yoritadi. Ularda himmat, adolat, qish, bahor, to‘g‘rilik,

mehmondorchilik, yoshlik, safar qilish, o‘lim va aza singari mavzular yoritilgan. Mavzular mazmunini yoritish tartibi ham o‘ziga xos. Ularni jadvalda quyidagicha tasvirlash mumkin:



U

<b>Asarning asosiy qismi tuzilmasi</b>	Iskandarning sarguzashti
	Mavzuga oid mulohazalar
	Ayni mavzudagi hikoyat
	Xulosa: Iskandar va Arastu (yoki boshqa hakimlar) hikmatlari

tariqasida keltiriladi. Undan keyin falsafiy-didaktik mazmundagi mulohazalar o‘rin oladi. Yaxlitlikning uchinchi qismini ayni mana shu sarguzasht va mulohazalar mazmuniga ishora qiluvchi hikoyatlar tashkil etadi. Nihoyat, uni Iskandarning Arastu (yoki boshqa hakimlar)

bilan savol-javoblari tariqasidagi hikmatlar yakunlaydi. Dostonda Iskandarning harbiy yurishlari qisman aks etgan bo'lsa-da, u jangnoma emas. Shunga qaramasdan, asar tilida harbiy so'z va atamalar, tushunchalar nisbatan kengroq o'z aksini topgan. Doston Faylaqusning Iskandarni topib olishi bilan boshlanadi. Unga munosib tarbiya beradi. Unga Naqumohis (Arastuning otasi) ustozlik qiladi.

U barcha fanlarni puxta egallagach, harbiy san'atni ham o'rganadi. Aql va tafakkurni o'stiradigan mashg'ulotlar bilan jiddiy shug'ullanadi. Faylaqus vafot etadi. Iskandar taxtga o'tirishdan voz kechishni o'ylab turganida, otasiing vasiyati esga tushadi. U: «Bu dunyo bilan xayrlashsam, mening o'rnimga o'tirsang-da, mening nomus-orim, shon-shuhratim yellarga uchmasa, degan umidda seni topgan edim», – degan edi.

**Mustahkamlash:** Mashg'ulotning ushbu qismida o'quvchilar Mashg'ulot yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

1. Dostonda olimlarga qanday munosabat bildirilgani haqida o'z mulohazalaringizni bildiring.
2. Dostondan olingan hikmatli so'zlar orasida siz o'rgangan parchalar bilan bevosita bog'lanadiganlari bor. Ularni toping va fikringizni asoslang.

**O'quvchilarni baholash:** O'quvchilar Mashg'ulotdagi ishtirokiga ko'ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o'quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Mashg'ulotda faol ishtirok etmagan o'quvchilar bilan ishlanadi.

**Uyga vazifa:** o'quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o'qib-o'rganish, qo'shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

Maktab MMIBDO' \_\_\_\_\_ Sana \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil

*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)  
Hujjat Word variantda beriladi.*

*Zokirjon Admin bilan*

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi*

**Adabiyot fanidan 10-11-sinf iqtidorli o'quvchilarga 34 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**




**Narxi: 20 ming so'm**

**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT  
QILMANG.**